

Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2024-yil 12-noyabr, seshanba, 130 (24.007)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

KUN HIKMATI

Qonunlar dunyoni har kim o‘z qarichi bilan o‘lchamasligi uchun chiqariladi





O‘ZBEKISTON-TURKIYA

o‘rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar Samarqandda muhokama qilindi

Samarqand shahrida O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida madaniyat sohasidagi qo‘shma komissiyaning ilk yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Unda O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri o‘rinbosari Murodjon Majidov boshchiligidagi soha mas’ullari hamda Turkiya Respublikasi madaniyat va turizm vaziri o‘rinbosari Batuhan Mumku boshchiligidagi delegatsiya a’zolari ishtirok etdi.

Yig‘ilishda kino, teatr va sirk, ijodiy va amaliy san’at, madaniy meros va muzeyshunoslik, madaniy taraqqiyotni ilgari surish, moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash uchun zamonaviy texnologiyalarni, shu jumladan, sun’iy intellektni integratsiyalash sohasida hamkorlik, xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birining madaniyat sohasida taklif etilayotgan tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda tajriba almashish bo‘yicha hamkorlik masalalari atroflicha muhokama qilindi.

– 2018-yilda Turkiya Respublikasi Prezidentining O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida imzolangan madaniy aloqalarni rivojlantirish bitimi o‘tgan davr mobaynida ikki mamlakat o‘rtasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi, – deydi Turkiya Respublikasi madaniyat va turizm vaziri o‘rinbosari Batuhan Mumku. - Bugungi yig‘ilishda ham ikki mamlakatda madaniyat va milliy kino kunlari, teatr haftaliklarini tashkil etish, hamkorlikda film va sahna asarlari yaratish hamda YUNESKO, AYSESKO, TURKSOY va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda madaniy tashabbuslarni targ‘ib qilish borasida kelishuvga erishdik. O‘ylaymizki, bu ishlar ikki mamlakatning madaniy-gumanitar sohadagi hamkorligiga katta turtki beradi.

Yig‘ilish yakunida ikki davlatning madaniyat sohasidagi qo‘shma komissiya ahdlashuv bayoni imzolanib, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida madaniyat sohasida II qo‘shma komissiyasi yig‘ilishini 2025-yilda Turkiyada o‘tkazishga kelishib olindi.

F.RO‘ZIBOYEV.



Davlat mukofotlari topshirildi

Tibbiyot xodimlari kuni viloyatimizda keng nishonlandi.

Viloyat hokimligida o‘tgan tantanali taqdirlash marosimida bir guruh faol tibbiyot xodimlari, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Viloyat hokimi E.Turdimov yig‘ilganlar timsolida viloyatning barcha tibbiyot xodimlarini kasb bayrami bilan qutladi, ularning sharafli mehnati, el-yurt salomatligi yo‘lidagi xizmatlarini e’tirof etdi.

Tadbirda Prezident farmoniga muvofiq, davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan tibbiyot xodimlariga orden va medallar tantanali tarzda topshirildi.

Xususan, Urgut tumanidagi «Sharof Rashidov» oilaviy shifokorlik punkti umumiy amaliyot shifokori Gulsina Mahmatmuratovaiga II darajali «Salomatlik» ordeni;

Samarqand davlat tibbiyot universitetining bolalar xirurgiyasi kafedrasi professori Azamat Shamsiyevga «Do‘stlik» ordeni;

Paxtachi tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi epidemiologiya va immunoprofilaktika bo‘linmasi mudiri Norbegim Husanovaga «Sog‘lom turmush» medali;

O‘zbekiston xalq tabobati assotsiatsiyasi a’zosi Alisher Yarmatovga «Shuhrat» medali taqdim etildi.

Shuningdek, bir guruh soha vakillariga sog‘liqni saqlash vazirligining “Sog‘liqni saqlash a’lochisi”, “Xalq salomatligi posboni” ko‘krak nishonlari va tashakkurnoma hamda viloyat hokimining faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari topshirildi.

- Inson qaysi sohada mehnat qilmasin, avvalo, ushbu vazifani sidqidildan va mas’uliyat bilan bajarishi lozim, - deydi “Do‘stlik” ordeni sohibi, tibbiyot fanlari doktori, professor Azamat Shamsiyev. – Bugun sohaga har qachongidan ko‘ra ko‘proq e’tibor ko‘rsatilyapti, bunday munosabatga faqat kasbga nisbatan ulkan mehr bilan yondashib javob qaytarish mumkin.

B.MUSTANOV.





Afruza ikki karra jahon chempioni

Braziliyada o‘tkazilgan shaxmat bo‘yicha jahon chempionatining 16 yoshgacha bo‘lgan qizlar musobaqasida samarqandlik shaxmatchi Afruza Hamdamova muddatidan avval jahon chempioniga aylandi.

O‘smirlar o‘rtasidagi mazkur jahon chempionatida uchta yosh toifasi (14, 16 va 18 yosh) bo‘yicha 6 nafar (o‘g‘il-qiz) chempion aniqlangan bo‘lsa, ular orasida Afruza eng yuqori natijani qayd etdi. U 11 ta partiyadan 10,5 ochko to‘pladi (10 ta g‘alaba va 1 durang). Qolgan chempionlar 9 ochkodan ko‘p to‘play olmagan.

Afruza 2023-yilda Italiyada o‘tkazilgan 14 yoshgacha bo‘lgan yoshlar o‘rtasidagi jahon chempionatida ham g‘olib bo‘lib, ayollar orasida o‘zbekistonlik birinchi jahon chempioniga aylangan edi.

Prokuror endi hisobot bermaydi

Hokimlar esa 5 yil muddatga saylanadi

Islohot

Yangilangan Konstitutsiyada belgilangan tamoyillardan kelib chiqib, amaldagi tartiblarga shu kabi bir qator o‘zgartishlar kiritildi. Ayni o‘zgarishlar nimalardan iborat, quyida shu haqda so‘z yuritishga harakat qilamiz.

Demak, birinchi yangilik - mahalliy vakillik organlariga prokurorlar o‘z faoliyati to‘g‘risida hisobot emas, axborot taqdim etadi.

«Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonundagi viloyat, tuman, shahar hokimi bir vaqtning o‘zida tegishli hududdagi vakillik hokimiyatiga boshchilik qilishi haqidagi norma chiqarib tashlandi.

Aniqrog‘i, avvalgi tartibga ko‘ra, hokimlar viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi edi. Endi ular hududdagi ijro etuvchi hokimiyatga boshchilik qiladi.

Qonun bilan hokimlar hududdagi Kengashlar, ya’ni deputatlar tuzilmasiga bo‘ysunuvchi mansabdorlar qatoriga o‘tkazilganini ko‘rish mumkin. Zotan, qonunda “viloyat, tuman, shahar hokimi:

... tegishli xalq deputatlari Kengashlarining qarorlarini ijro etadi”, deb belgilab qo‘yildi.

Yana bir yangilik - ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shahar hokimi etib tayinlanishi mumkin emas.

Hokimlarning vakolatlari muddati — besh yil.

Shu o‘rinda eslatib o‘tish zarur, hokim va mahalliy Kengash raisi vazifalarining ajratilishi bilan bog‘liq qoidalar tuman va shaharlarda 2026-yil 1-yanvardan amalga kiritiladi.

Avvalgi tartibda ham hokimlar tegishli hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha mahalliy vakillik organlari, ya’ni deputatlarga hisobot berishi haqidagi norma bor edi. Ammo aksar hollarda bu amaliyot kuzatilmasdi. Qonunchilikka kiritilgan qo‘shimcha bilan qayd qilingan hisobotni taqdim qilishning aniq muddati belgilab qo‘yildi.

Darvoqe, o‘zgartishga ko‘ra, hokim Kengashlar faoliyatining tashkiliy shakli (avvalgi tartibda ish shakli edi) sessiyalarni chaqirish vakolatiga ega emas. Hududiy ijro etuvchi hokimiyat boshliqlari bu haqda faqat taklif kiritishi mumkin.

DEPUTATLAR FAOLIYATIDA NIMA O‘ZGARDI?

Endi deputatlar Kengash sessiyasini chaqirish to‘g‘risidagi qarordan sessiya ochilishidan kamida uch kun oldin xabardor qilinadi. Qonunning avvalgi tahririda bu muddat yetti kunni tashkil qilardi.

Umuman, sessiya chaqirish Kengash raisi vakolatida qoldi. O‘zgartish shuki, Kengashga deputatlar orasidan saylangan rais jamoatchilik asosida boshchilik qiladi. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozim, deputatlar o‘zlari saylagan raisni muddati tugamasdan ham lavozimdan ozod qilishlari mumkin. Qonunda bu amaliyotning tartibi ham nazarda tutilgan.

Kengash sessiyalariga rais yo‘qligida saylovda eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiya guruhi rahbari raislik qiladi. Qonundagi ayni o‘zgartish partiyalar o‘rtasida hududlarda ham raqobat shakllanishiga xizmat qilishini qayd etish lozim.

Negaki, shu paytgacha hududlarda partiyalar o‘rtasidagi raqobat deyarli hech narsani anglatmasdi. Sessiyani Kengash deputatlarining uchdan ikki qismining tashabbusi bilan ham chaqirish mumkinligini hisobga olsak, muayyan deputatlik guruhlari hal qiluvchi rol o‘ynash imkoniga ega bo‘lgan.

Bu esa tabiiyki, ilgari surilayotgan g‘oya va tashabbuslarni ko‘proq o‘tkazish imkonini beradi.

Umumiy aytganda, mahalliy vakillik organlari faoliyati hudud aholisi manfaatlaridan kelib chiqib, qarorlar qabul qilishga yo‘naltirilsa, hokimlarning faoliyati esa mazkur qarorlarni ijro qilishga qaratiladi.

YANGILIKLAR KO‘P...

Hokimlar tegishli xalq deputatlari Kengashining qonunchilikka zid bo‘lgan qarorlarini bekor qilish uchun Oliy Majlis Senati yoki sudga murojaat qiladi. Ayni damda qonunchilikdagi bu o‘zgartish ham Kengashlar mustaqilligi uchun dadil qadamlardan biri, deyish mumkin.

Eski tartibga ko‘ra, bilasiz, sessiya muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish va tayyorlash, xalq deputatlari Kengashi qarorlari va qonun hujjatlarini ro‘yobga chiqarish uchun ko‘maklashish, shuningdek, o‘z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish uchun xalq deputatlari Kengashi o‘z vakolatlari muddatiga doimiy va muvaqqat komissiyalar tuzadi.

Yangi tartib bo‘yicha xalq deputatlari Kengashlarida, qoida tariqasida, beshta (ilgari 7-8 ta bo‘lardi) doimiy komissiyalar tuziladi:

- mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha;
- korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash va huquqiy masalalar bo‘yicha;
- ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha;
- agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha;
- reglament va deputatlik odob-axloqi masalalari bo‘yicha.

Yana bir muhim jihat, Kengashlarning nazorat tadbirlarini amalga oshirishdagi imkoniyatlari «Kengash so‘rovi», «Kengash tekshiruvi» kabi ta’sirchan institutlarni joriy etish hisobiga kengaydi.

XULOSA

Bir so‘z bilan aytganda, qonun bilan mahalliy Kengashlarning nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratilib, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati ustidan xalq deputatlari Kengashlarining nazorat funksiyalarini kengaytirish uchun ularga o‘ndan ortiq qo‘shimcha vakolatlar berildi.

Yoqubjon MARQAYEV.

IJTIMOIY XIZMAT SHERIKLIKDA RIVOJLANADI

Bugun ijtimoiy xizmat sohasi zamonaviy fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos institutiga aylandi. Ijtimoiy davlat sifatida yurtimizda ham ayni yo‘nalishga e’tibor ortib, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi, yangi tizim yaratildi. Xo‘sh, bu tizimda nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘rni qanday? Ular davlat bilan qanday hamkorlik qiladi?



Ma’lumotga ko‘ra, shu kunlarda viloyatimizda 818 ta nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat yuritadi. Shundan 240 tasi hisob ro‘yxati va 578 tasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Ularning 311 tasi diniy tashkilot ekanligini hisobga olsak, qolgan 507 tasi u yoki bu turdagi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi. Ammo sohada davlat ishtirokining ortishi barobarida vazifalar takrorlanib, umumiy samaradorlik pasaymaydimi, degan fikr ham mavjud.

Samarqand shahar Ko‘ksaroy mahallasida “SOS Bolalar mahallalari” nodavlat notijorat tashkilotining Ijtimoiy yetimlikning oldini olish xizmati markazi ochilishida ayni savolni tashkilotning viloyat filiali direktori Dilrabo Davronovaga bergan edik. Ma’lumot uchun, markaz ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan yoki shunday xavf ostidagi, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, ko‘p bolali oilalarning farzandlari bilan ishlaydi. Samarqand shahrining o‘zida filialning beshta shunday markazi bor. Shunda mutaxassis ijtimoiy xizmat keng tushuncha ekanligi, mazkur jarayonda yordam “qo‘li” qancha ko‘p bo‘lsa, samaradorlik ham shuncha yaxshi bo‘lishini aytgandi.

Tashkilot “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari hamda mahallalar bilan hamkorlikda ishlab, joylarda muhtojlarga ijtimoiy, psixologik va huquqiy yordam berib kelmoqda.

— Ijtimoiy xizmatlar sohasida olib borilayotgan islohotlar bizning faoliyatimizga ham ijobiy ta’sir qilmoqda, - deydi Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi Samarqand mintaqaviy filiali direktori Otabek Qosimov. – Misol uchun, oldin imkoniyati cheklangan bolalarni topish va komissiya ko‘rigiga jalb qilish uchun mahalla, maktab va tibbiyot muassasalariga xat bilan chiqib, ovora bo‘lar edik. Hozir Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi bilan ijtimoiy sheriklik asosida ishlayapmiz. Ular nuqsoni bor bolalarni bizga yo‘naltiradi, biz esa o‘z navbatida ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bilan shug‘ullanamiz. Aytish mumkinki, bugun viloyatimizda 19 mingga yaqin imkoniyati cheklangan bolalar bor. Markazimiz esa bir yilda o‘rtacha ming nafar bolani qabul qilishi mumkin. Ya’ni, bu yo‘nalishda hali ham imkoniyatlarimiz yetarli emas.

O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunida ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligi, deya ko‘rsatilgan. U nafaqat ijtimoiy xizmatlar sohasida, balki aholining bandligini ta’minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlikni rivojlantirish, atrof-muhitni, aholining sog‘lig‘ini muhofaza qilish va sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, har tomonlama barkamol va sog‘lom yosh avlodni shakllantirish, yoshlarga bilim berish, onalik va bolalikni, shuningdek, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish singari muhim yo‘nalishlarda ham amalga oshiriladi.

Aytish joizki, sohada fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini oshirish, ularning bu boradagi faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalasi qonunchilik doirasida ham mustahkamlanib bormoqda. Prezidentning joriy yil 24-avgustdagi farmoni bilan esa Oliy Majlis, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda mahalliy kengashlar huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlari qo‘shib yuborilib, ularning negizida Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etildi. Hujjat bilan ijtimoiy foydali dasturlar samaradorligini oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish belgilangan.

Shuningdek, unga ko‘ra, 2024-yilning 1-oktabridan 2027-yilning 1-oktabriga qadar fond mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan davlat grantlari va davlat ijtimoiy buyurtmalari loyihalari doirasida to‘lanadigan loyihaga mehnat va fuqarolik-huquqiy shartnomalari asosida jalb qilingan mutaxassislarning mehnatga haq to‘lash tarzida olgan daromadlaridan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan mehnatga haq to‘lashga doir xarajatlari bo‘yicha to‘lanadigan ijtimoiy soliq bo‘yicha belgilangan soliq stavkalari 50 foizga kamaytirildi. 2025-yilning 1-yanvaridan boshlab nogironligi bo‘lgan shaxslar, faxriylar, xotin-qizlar hamda bolalar jamoat birlashmalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun belgilangan davlat bojlari miqdorini ikki baravarga kamaytirilgan holda undiriladi.

Asqar BAROTOV,
“Zarafshon”
muxbiri.



“Xorijda tajriba orttirib, korxona ochdim”

“Yetti yil xorijda ishladim, oson bo‘lmadi. Oylik vaqtida berilmasdan, pulsiz qolgan kunlar ko‘p bo‘lgan. Chetga chiqishimga qishloqda chiroqning tez-tez o‘chishi sabab bo‘lgan”. Narpaylik tadbirkor Baxtiyor Xudoyberdiyev xorijda ishlab, boshidan kechirgan qiyinchiliklari, sabr bilan orttirgan tajribasi va bugungi faoliyati haqida bizga gapirib berdi.

- Qishloqda maktabni bitirib, kasb-hunar kollejida o‘qidim, - deydi u. – Oliy o‘quv yurtiga kirish nasib qilmadi. Kollejning diplomi bilan ish topish esa katta muammo edi. Hunarmandga shogird tushib, duradgorlik bilan shug‘ullana boshladim. Keyinchalik o‘zim mustaqil mebel sexini tashkil qildim, ammo o‘sha paytlardagi elektr energiyasidagi uzilishlar erkin ishlashga yo‘l bermadi. Xorijga ketishga majbur bo‘ldim. Chet davlatda ishlashning ham o‘zi bo‘lmadi. Oylikni vaqtida ololmagan, pulsiz qolib ketgan kunlarim ko‘p bo‘ldi. Vatanga qaytsam, korxona ochishni va birinchi navbatda, ishchilarni rozi qilishni maqsad qildim.

Baxtiyor yurtiga qaytib, maqsadiga erishdi. U tashkil qilgan korxonada 10 nafardan ziyod ishchi mehnat qiladi va barchasi undan rozi.

- Xorijda turli ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qildim, - deydi B.Xudoyberdiyev. – Kichikroq sex tashkil qilishga yetarli mablag‘ to‘pladim. Asosiysi, tajriba orttirdim. Xorijga 2010-yil ketgan bo‘lsam, 2017-yilda ota-onam uyga qaytishimni, O‘zbekistondayam tadbirkorlik qilish uchun qulay sharoitlar yaratilayotganini aytdi. Yurtga qaytib, bozorni o‘rgandim, hovlimizning bir qismida polietilen paket ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydim. Faoliyatimiz kundan-kunga kengayib boryapti. Korxonamiz yiliga 1 milliard 200 million so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Baxtiyor Xudoyberdiyev xorijda orttirgan tajribasiga tayanib, kelgusida faoliyatini yanada kengaytirishni, yangi loyihalarni amalga oshirib, qishloq odamlari uchun ko‘plab ish o‘rinlari yaratishni maqsad qilgan.

To‘lqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV
(surat).



Dolzarb mavzu

Suv tejovchi texnologiyalar:

Ertangi muammoning bugungi yechimi

Zarafshon daryosi viloyatning yagona suv manbai hisoblanadi va 340 ming gektardan ortiq sug‘oriladigan yer maydonlari aynan shu daryodan keladigan suvga bevosita va bilvosita bog‘liq. Bu daryo qo‘shni Tojikiston Respublikasi hududidagi Fedchenko muzliklarining erishi orqali to‘yinib, viloyatga Urgut tumani orqali kirib keladi. Biroq daryodan keladigan suv sarfining ko‘p yillik ko‘rsatkichlarini tahlil qilganimizda suv miqdori har yili 7-10 foizga kamayib borayotganligi kuzatildi.

Viloyatdagi eng yirik Kattaqo‘rg‘on va Oqdaryo suv omborlari ham aynan Zarafshon daryosidan to‘ldiriladi. Agarda daryodan keladigan suv keskin kamaysa, ushbu suv omborlariga ham suv jamg‘arish imkoniyati bo‘lmaydi va ularning qurish xavfi yuzaga keladi.

Hozirda Tojikiston Respublikasida ham aholining o‘sishi va bu orqali qo‘shimcha yer maydonlarining o‘zlashtirilishi natijasida suvdan foydalanish hajmi oshmoqda. Bu Zarafshon daryosi suv sarfiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. O‘z navbatida viloyat tumanlarida yer osti suvlarining pasayib ketishi hamda yer osti suvlariga bog‘liq yer maydonlarining suv ta’minotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada iqlim o‘zgarishi, sahrolarning kengayishi, cho‘llanish va yer degradatsiyasi, suv resurslarining tanqisligi, bioxilma-xillikning kamayishi kabi salbiy oqibatlar yuzaga kelishi xavfi oshib boradi. Shu bois suv tanqisligi oldini olish uchun mavjud resurslardan oqilona foydalanish, suvning har tomchisini tejash lozim.

Mavjud suv resurslarining qariyb 70 foizi qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirilishiga sarflanishini inobatga olib, hozirdan barcha sug‘orish ishlarida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish zarur. Misol uchun, ekinlarni yomg‘irlatib, tomchilatib, diskret (pulsar) sug‘orish tizimi, egiluvchan quvurlar orqali sug‘orish va yer maydonlarida lazer tekislash ishlarini olib borish zarur.

Viloyatimizda 2017-2023-yillarda jami 164,6 ming gektar maydonda suvni tejovchi sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan. Shundan 56,5 ming gektar maydonda tomchilatib, 2,8 ming gektar maydonda yomg‘irlatib, 141 gektar maydonda diskret, 42,3 ming gektar maydonda egiluvchan quvurlar orqali sug‘orish tizimi, 14 ming gektarda egatga plyonka to‘shab sug‘orish hamda 48,7 ming gektar maydonni lazer uskunasi orqali tekislash ishlari yo‘lga qo‘yildi. Bu orqali yiliga o‘rtacha 150-170 million metr kub suv iqtisod qilinmoqda.



Davlatimiz rahbarining joriy yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha bir qator vazifalar belgilandi.

Qarorga asosan, “Agrobank” ATB tomonidan suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish bo‘yicha shaffof onlayn kredit ajratish imkonini beruvchi “suvkredit.uz” elektron tizimi ishlab chiqilib, 2024-yil 1-fevraldan ishga tushirildi. Ushbu platforma orqali 2 yillik imtiyozli davr bilan 5 yil muddatga 14 foiz miqdorida onlayn kreditlar ajratilmoqda.

Davlat rahbarining ushbu qarori asosida fermer xo‘jaliklari va agroklasterlar oldida turgan bir qator muammolarga yechim topildi. Jumladan, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kredit foizi miqdori 2 yillik imtiyozli davri bilan 14 foizga tushirildi. Fermer xo‘jaliklari tomonidan kredit olish jarayonida garov ta’minoti majburiyati bekor qilindi.

Shuningdek, ushbu qaror bilan qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliq yetishtirish uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 1 kub metr suv uchun 100 so‘m etib belgilandi.

Davlatimiz rahbarining ushbu qarori asosida fermer xo‘jaliklari va agroklasterlarga katta imtiyozlar berilishi hisobiga 2024-yil uchun belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar yilning ikkinchi choragida to‘liq bajarilishiga erishildi.

Joriy yilda 10,1 ming gektar maydonda tomchilatib, 3,2 ming gektar maydonda yomg‘irlatib, 3,2 gektar maydonda diskret, 8,3 ming gektar maydonda egiluvchan quvurlar orqali sug‘orish tizimi va egatga plyonka to‘shab sug‘orish tizimi joriy etilgan bo‘lsa, 23,1 ming gektar maydonni lazer uskunasi orqali tekislash ishlari amalga oshirildi.

Bu orqali o‘rtacha 61 million metr kub suv tejalishiga erishilib, iqtisod qilingan suv hisobiga 18 ming gektar maydondagi takroriy ekinlarni suv bilan ta’minlash imkoniyati yaratildi.

Ushbu ko‘rsatkichni o‘tgan yil bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, joriy yil birinchi choragining o‘zida 40 foiz o‘sish qayd etildi.

Bundan tashqari, Prezidentimizning yuqoridagi qaroriga asosan, 2025-yildan

- suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy qilinganda hamda sug‘orish uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanganda suv solig‘i stavkasiga 0,5 kamaytiruvchi koeffitsiyent;
- suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy qilinganda yoki sug‘orish uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanganda suv solig‘i stavkasiga 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyent;
- baliqchilik uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanganda suv solig‘i stavkasiga 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyent,
- suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy qilinmagan hamda sug‘orish uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanmaganda suv solig‘i stavkasiga 1,5 oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llaniladi.

Ya’ni, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etmagan iste’molchilar 1 kub metr suv uchun 150 so‘m soliq to‘lashiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan bir qatorda, suvni tejovchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etgan fermer xo‘jaliklari va agroklasterlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyozlar qo‘llaniladi.

Jumladan, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga subsidiyalar texnologiyaning sifat ko‘rsatkichidan kelib chiqqan holda ajratiladi. Bunda ular besh yil muddatga yer solig‘idan ozod qilinadi, suvni tejaydigan texnologiyalar joriy qilingan yer maydonlari kamida 5 yil mobaynida maqbullashtirilmaydi, suv hisoblagich qo‘yilganda, suv solig‘idan 30 foiz imtiyoz beriladi.

Shuhrat YUSUPOV,
viloyat suv xo‘jaligi boshqarmasi
bo‘lim boshlig‘i.

Oromgoh xodimlari sportda bellashdi

O‘zbekiston Kasaba uyushmalari kuni munosabati bilan Urgut tumanining “Chorchinor” bolalar yozgi dam olish va sog‘lomlashtirish oromgohida sportning shaxmat, shashka va stol tennisi bo‘yicha musobaqa tashkil etildi.

O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi tizimidagi bolalarning dam olishini va sog‘lomlashtirilishini tashkil etish departamenti viloyat boshqarmasi tashabbusi bilan o‘tkazilgan sport bellashuvida viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan bolalar oromgohlari xodimlari mahoratlarini sinovdan o‘tkazishdi.

– Bu kabi tadbirlar orqali ishchi-xodimlarning nafaqat sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, balki o‘zaro tajriba almashishiga imkon yaratish ko‘zda tutilgan, – deydi departamentning viloyat boshqarmasi rahbari Feruza Qilicheva.

G‘oliblarga tashkilotchilarning diplom va esdalik sovg‘alari topshirildi.

H.ELTOYEV.



Hamkorlikda malaka oshiryapmiz

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganishga va ulardan amaliyotda foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yaqinda universitetning o‘zbek tili va xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchilari Kamola Mirfayziyeva Sankt-Peterburg universitetida, Mustafo Osmanov Turkiyaning Burdur Mehmet Akif Ersoy universitetida malaka oshirib qaytdi.

Mazkur olimlar universitetning xorijiy davlatlar universitetlari bilan o‘zaro kelishuvlariga ko‘ra, talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish, xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish kabi yo’nalishlarda xorijlik professorlar bilan tajriba almashdi. Xorijiy davlatlar tili va madaniyatini o‘rganishga qaratilgan yozgi maktablar va kurslarni, xalqaro tadqiqot konsorsiumlarini tashkil etish, ilmiy tadqiqotchilarni birlashtiradigan onlayn kurslarni ishlab chiqish, madaniy va ma’naviy sohada xalqaro tanlovlar, ko‘rgazmalar o’tkazishga kelishib oldi.

Bobomurod MIRSANOV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

2024-yil 8-noyabrdan o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer maydonlarida qurilgan ko‘chmas mulk obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov boshlanadi. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi mas’ullari ishtirokida o‘tkazilgan matbuot anjumanida ushbu jarayon haqida ma’lumot berildi.

O‘zboshimchalik bilan egallangan 487 mingdan ortiq yer uchastkasi bor

- O‘rganishlarga ko‘ra, hozirda viloyatimizda huquqiy hujjatlari yo‘q yoki to‘liq bo‘lmagan 487 mingdan ortiq yer uchastkasi mavjud, - deydi kadastr agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Yashnar Davronov. - Agar ularning har biri o‘rtacha 3-4 nafardan fuqaro va tadbirkorga daxldor bo‘lsa, joriy yilning 5-avgust kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan “O‘zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi Qonun 1,5 milliondan ziyod aholining muammosini hal qiladi, degani. Endi ular yillar davomida o‘zlariga tegishli bo‘lgan yer uchastkalari va ularda qurilgan binolarni qonuniylashtirib olishlari mumkin bo‘ladi.

Ammo jarayon ko‘pchilik kutayotganidek tez va birdaniga amalga oshib qolmaydi. Qonun bilan hujjatsiz yer va bino-inshootlarni qonuniylashtirishning tartib-tamoyillari belgilangan. Yangi Qonun bilan 8 holatdagi yer uchastkalariga va ulardagi binolar uchun huquqlarni rasmiylashtirishga imkoniyat yaratildi.

Huquqni e’tirof etishning asosiy shartlari sifatida yer uchastkasi boshqa shaxsga ajratilmaganligi yoki auksionga chiqarilmaganligi, yer uchastkasidan foydalanishda nizo mavjud emasligi, yer va mol-mulk solig‘i bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligi, muhofaza zonasida, sug‘oriladigan yerda joylashmaganligi, bosh reja talablariga zid emasligi, har bir kategoriyaga xos boshqa shartlar talab etiladi.

Qonun kuchga kirgunga qadar kadastr agentligi tomonidan tasdiqlangan reja-jadval asosida davlat organlarining o‘zi joylarga chiqib, hujjatsiz yer uchastkalari va uy-joylarni o‘rganish ishlarini amalga oshiradi. Ya’ni, aholi bu masalada biror joyga murojaat qilishi yoki ariza berishi shart emas. Hammasi tartib asosida, belgilangan vaqtda olib boriladi. Qonun 2028-yil 1-yanvarga qadar amal qiladi va hujjatlashtirish amaliyoti uch yildan ziyod vaqt davomida to‘liq amalga oshirilishi belgilangan.

Qonun bilan yakka tartibdagi uy-joylar egallagan yerlarga ijara huquqi 1998-yil 1-iyulga qadar egallangan bo‘lsa – 0,24 gektargacha, 1998-yil 1-iyuldan 2018-yil 1-may kuniga qadar egallangan bo‘lsa – Toshkent, Nukus shaharlari hamda viloyat markazlarida 0,06 gektar, qolgan hududlarda 0,12 gektardan oshmagan hajmgacha e’tirof etiladi. Ushbu hajmdan ortiqcha yerlar, agar nizo bo‘lmasa, dehqon xo‘jaligi yoki tomorqa xo‘jaligi yuritish uchun rasmiylashtirib beriladi.

Fuqarolarning hech bir davlat organiga murojaat qilishi talab qilinmaydi. Barchasini davlat organlari bir necha bosqichda amalga oshiradi. Ish davomida yuzaga keladigan masalalarni hal qilish uchun xalq deputatlari tuman Kengashi qarori bilan vakolatli organlarning tuman bo‘linmalaridan iborat ishchi guruhlar tuziladi.

Prokuratura, ichki ishlar, agroinspeksiya, ekologiya, kadastr organlari qonunni amalga oshirishda davlat nazoratini o‘rnatadi. Xalq deputatlari tuman Kengashlari qarori bilan har bir mahallada jamoatchilik guruhlari tashkil etiladi. Bu guruhlarga mahalla joylashgan okrugdan saylangan tuman Kengashi deputati, mahalla raisi va faol fuqarolar kiritiladi. Agar ko‘rilayotgan ishda qo‘shnilar yoki mulkdorlar o‘rtasida nizolar bo‘lsa ham, hujjat keyingi bosqichga o‘tmaydi.

Turarjoylar, xususiylashtirilgan yoki mulk huquqi e’tirof etilgan bino va inshootlar ostidagi yer uchastkalariga huquqlarni e’tirof etish uchun bir martalik to‘lov miqdorlari Toshkent shahrida – BHMning 5 baravari, Nukus shahri va viloyat markazlarida – BHMning 3 baravari, viloyatlar bo‘ysunuvidagi boshqa shaharlarda – BHMning 2 baravari, boshqa aholi punktlarida – BHMning 1 baravari miqdorida belgilangan.

Qonun bilan I va II guruh nogironlari, oldingi “aksiya” vaqtida yig‘im to‘lagan shaxslar to‘lovdan ozod qilinadi, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga kiritilgan shaxslarga 50 foiz chegirma beriladi.

“O‘zboshimchalik bilan egallangan”, degan so‘z faqatgina noqonuniy ma’nosini anglatmaydi. Qonunchilikda hujjatlari saqlanib qolmagan yer yoki bino-inshootlarga nisbatan ham “o‘zboshimchalik bilan egallangan” degan ta’rif qo‘llaniladi. Masalan, o‘tgan asrda ajratilgan yerlarning ko‘pi shunday holatda, ya’ni qaysidir sabablarga ko‘ra hujjatlari saqlanmagan. Ularning barchasi tegishli tartibda o‘rganilib, qonuniy yechim beriladi. Bu fuqarolarning hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularda o‘z uy-joyini qonuniy rasmiylashtirib olish, boshqa shaxsga sotish, oila a’zolarini doimiy ro‘yxatga qo‘yish huquqi paydo bo‘ladi.

Yana bir muhim masala xatlov jarayonida xodimlar aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotga kirishadi va shu paytda ular o‘rtasida har xil noqonuniy kelishuv va oldi-berdilar bo‘lishi ehtimoli yo‘q emas. Buni inobatga olgan holda xatlov jarayonlari to‘liq shaffof mexanizm asosida yo‘lga qo‘yilishi nazarda tutilgan bo‘lib, Kadastr agentligining “Geoinfokom” davlat muassasasi tomonidan o‘zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish axborot tizimi - “E’TIROF” AAT dasturi ishlab chiqildi.

2024-yilda respublikamizning barcha tuman va shaharlarida jami 901 ta, 2025-yilda esa 2980 ta mahallani qamrab olish rejalashtirilgan. Mahallalar reja-jadvali bilan kadastr agentligining kadastr.uz saytida tanishish mumkin.

O‘.XUDOYBERDIYEV.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

SAMARQAND VILOYATI AHOLISI VA MEHMONLARI DIQQATIGA!

Hozirgi kunda Samarqand viloyati hududiga tegishli ruxsatnomalarsiz va sertifikatlarsiz olib kirilgan hamda sotuvda bo‘lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalar, jumladan, mobil aloqa tayanch baza stansiyalarining faoliyati uchun radioxalaqitlar keltirib chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi uskunalar (repeaterlar) ko‘payib ketganligini inobatga olgan holda, Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati ogohlantiradi:

Mobil kuchaytirgich (repeater)lar O‘zbekiston Respublikasi Radiochastotalar bo‘yicha Respublika kengashining 2022-yil 23-avgustdagi 707-sonli qarorining 1-bandida keltirilgan texnik shartlar talablariga mos ravishda o‘rnatilgan bo‘lishi va boshqa turdagi radioelektron vosita (REV)larga radioxalaqitlar bermasligi kerak. Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos kelmaydigan boshqa mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarni O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish (yaratish), modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xorijdan olib kirish (xorijdan xarid qilish) hamda ulardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarni bajarish hamda mobil aloqa tarmoqlariga xalaqitli ta’sirlar keltirmaslik talablariga majburiy rioya qilgan holda mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarni O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarish, modernizatsiya qilish va o‘rnatish bo‘yicha ishlarni bajarishga (shu jumladan, ularga xizmatlar ko‘rsatishga) faqat faoliyat turi bo‘yicha tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan yoki mobil aloqa operatorlari nomidan shartnoma asosida ish yurituvchi yuridik shaxslarga ruxsat etilishi;

O‘zbekiston Respublikasi hududiga mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos keladigan retranslyator qurilmalarini xorijdan olib kirish, radiochastota organlarining o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan olib kirish ruxsatnomasiga asosan amalga oshirilishi;

Retranslyator qurilmalaridan foydalanuvchilar o‘zlari tomonidan foydalanilayotgan qurilmalardan mobil aloqa operatorlari tarmoqlariga radioxalaqit hosil bo‘lishining oldini olish uchun barcha zarur bo‘lgan tashkiliy-texnik choralarni ko‘rishlari kerakligi;

Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos kelmaydigan boshqa mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarini O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish (yaratish), modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xorijdan olib kirish (xorijdan xarid qilish) hamda ulardan foydalanish qat’iyan man qilinishi ko‘rsatilib o‘tilgan.

Viloyat hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatsiz olib kirilgan hamda sotuvda bo‘lgan va ishlatilayotgan, mobil aloqa tayanch baza stansiyalarining faoliyati uchun radioxalaqitlar keltirib chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi uskunalar (repeaterlar) o‘rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma’muriy javobgarlik choralari ko‘riladi.

* * *



O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi “Elektromagnit moslashuv markazi” Davlat unitar korxonasi (“EMMM” DUK), Samarqand viloyati Elektromagnit moslashuv xizmati turli diapazonlardagi radioaloqa vositalariga, televidenie va radioeshittirish (TV va RE) dasturlarini qabul qilishga ta’sir etuvchi radioxalaqitlarni bartaraf etish uchun jismoniy va yuridik shaxslardan buyurtmalarni qabul qiladi.

Radioxalaqitlarni bartaraf etish ishlari O‘zbekiston Respublikasining “Radiochastota spektri to‘g‘risida”gi Qonuni asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi “Elektromagnit moslashuv markazi” DUK Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati ogohlantiradi:

Respublika hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatsiz olib kirilgan hamda sotuvda bo‘lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalari (uzoq masofali radiouzatkichlar, portativ radiostansiyalar va boshqa radiouzatkich vositalari) o‘rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma’muriy javobgarlik choralari ko‘riladi.

Radioelektron vositalarni respublika hududiga olib kirish uchun ruxsatnoma olishni va o‘rnatilgan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazishni rasmiylashtirish masalalari bo‘yicha Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmatiga murojaat qilishingiz mumkin.

Manzil: Samarqand tumani, “Yoshlik” MFY.
Telefonlar: 66-616-43-45, 66-616-44-15.
SAMARQAND VILOYATI ELEKTROMAGNIT MOSLASHUV XIZMATI.



ELEKTRIKLARNI ISHGA TAKLIF ETAMIZ!

“BOG‘ISHAMOL YO‘LLARDAN MUNTAZAM FOYDALANISH KORXONASI”
davlat muassasasiga yuqori kuchlanishli elektr liniyalari elektrigi mutaxassisi kerak.
Ish vaqti soat 8:00 dan. Oylik maoshi 4 000 000 so‘mdan boshlanadi. Xodim xizmat uniformasi bilan ta’minlanadi, xizmat vazifasini bajarish joylariga korxona maxsus avtomashinalarida borib kelinadi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Mirzo Bedil ko‘chasi, 34-uy.
Mo‘ljal: “Muz saroyi”, sobiq “2522-avtojamlanma”.
Murojaat uchun telefonlar: +99899-623-08-32, +99890-474-76-88, +99890-605-72-05.

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Allamuradov Islomga (1983-yil 22-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum G‘aniyeva Mukaddas Toshkulovnaga (2019-yil 22-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko‘chasi, 3-uy, 35-xona.

* * *

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro‘ziyevich notarial idorasida marhum Mardanov Parda Umarqulovichga (2024-yil 17-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qurbonov Azizjon Ro‘ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko‘chasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Kulmatov Baxodir Kurbanovishga (2024-yil 7-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 41/100-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Uktamov Utkur Uktamovichga (2023-yil 10-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Valixodjayev Farzod Botirovich notarial idorasida marhum Kurbonov Xudoyberdiga (2012-yil 8-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Valixodjayev Farzod Botirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Ishankulova Farida Radjabovnaga (2023-yil 16-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Sayfullayev G‘opir Abulqasimovichga (2022-yil 20-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 13-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Muhitdinova Matluba Karimovnaga (2016-yil 27-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug‘bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Ashurova Muxabbatga (2021-yil 1-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Murtazayev Ulug‘bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko‘chasi, 12-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Samadov Sharofga (1998-yil 18-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 18-uy, 51-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Sadikova Masumaga (2022-yil 3-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy, 4-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Fatulloyev Davron Pardayevichga (2020-yil 8-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 41/100-uy.

* * *

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Sharipov Olim Muinovichning (Pasport AC 2749961) haydovchilik guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so‘raymiz.

Telefon: +99888-892-90-96.

* * *

Samarqand viloyat ichki ishlar boshqarmasidan 2007-yilda Nabiev Abdusaid Raupovichga berilgan pensiya guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so‘raymiz.

Telefon: +99890-743-37-37.

Bugunning gapi

Nega bolalarni mobil telefondan asramayapmiz?

Qo‘l telefonlarining inson salomatligiga, ayniqsa, yosh bolalarga qanchalik zarar ekanini olimlar, soha mutaxassislari aytishmoqda. Yosh onalarni bu xavfdan ogohlantiryapti. Zamonaviy mobil telefonlar bolalar uchun o‘yinchoq yoki ovunish vositasi emasligi uqtirilyapti. Biroq ko‘cha-ko‘yda holatning batamom aksiga duch kelyapmiz.



Taksida ketyapman. Yonimda ikki nafar yosh ona o‘tiribdi, birida ikki nafar, ikkinchisida bir nafar go‘dak bor. Mashina biroz yurgach, ona qo‘lidagi bola injiqlik qila boshladi. Yosh ona tezda qo‘l telefonining ekranini ochib, bolaning qo‘liga berdi. Bola undagi multfilmga ozgina qaragach, yana injiqlik qila boshladi. Bu holat bir necha bor takrorlangach: “Bolaga nega hadeb telefonni ko‘rsataverasiz, u buni xohlamayapti-ku?”, dedim. Ayol: “Yo‘q, unday emas. Bolam o‘zining multfilmini ko‘rmoqchi bo‘lyapti. Ko‘chada wi-fi yo‘qligi uchun uning multfilmi chiqmayapti, telefonimdagi boshqa multfilmlarni bolam ko‘rishni istamayapti”, dedi.

Bir yashar bolaning har kuni qo‘l telefonida ko‘radigan sevimli multfilmi borligidan lol qoldim. “Bu hali go‘dak-ku, telefon bolaning ko‘z nuriga yomon ta’sir qilishini bilmaysizmi?” dedim. Ayol indamadi. Suhbatimizga quloq solib ketayotgan haydovchi: “Gapingizga qo‘shilaman, mening ham nevaram bor, telefonsiz turolmaydi. Telefon bilan tug‘ilgan, desam ham bo‘ladi. Jim o‘tirsin deb yana telefon olib beraman. Lekin keyingi vaqtlarda televizorning yaqiniga borib ko‘rayotganidan sezyapmanki, ko‘zi uzoqni yaxshi ko‘rmayapti”, dedi.

Multfilm ko‘rishni xohlayotgan go‘dak yo‘l davomida yonidagi o‘zi tengi bolalar bilan ishi bo‘lmadi, xarxashasi ham tugamadi. Aslida hali gapira olmaydigan bolalar ham bir-biri bilan tez chiqishib ketadi, o‘zlari tushunadigan tilda gaplashadi. Ammo mashinadagi bolalarda bunday holat bo‘lmadi. Bola halitdan tashqi olamdan uzilib, virtual olamga bog‘lanib qolganiga achindim. Afsuski, bunday bolalar atrofimizda juda ko‘p.

Yaqinda yozuvlarni yaxshi o‘qiy olmayotganimdan shikoyat qilib, ko‘z shifokorga bordim.

- Xavfli tomoni yo‘q, yoshingizga yarasha ko‘rish qobiliyatingiz pasaygan, - dedi vrach.

Shu payt ota-ona lupali ko‘zoynak taqqan 7-8 yoshlardagi bolasini yetaklab keldi. Shifokor bolaning ko‘zlarini tekshirib:

- Endi ko‘zing batamom tuzalib ketishi uchun bir kunda yarim soatdan ko‘p telefonga qaramaysan, - dedi.

- Yo‘q, yo‘q, umuman telefonga qaramaydi, o‘zim uyda nazorat qilyapman, - dedi ayol eridan hadiksirab.

Ayolning o‘zini tutishidan turmush o‘rtog‘idan rosa gap eshitgani sezilib turardi. Ammo g‘isht qolipdan ko‘chgan, bolaning ko‘rish qobiliyati ancha pasayib ketgani shundoq ko‘rinib turibdi. Taksidagi multfilm ko‘rmoqchi bo‘lgan bolaning ham ota-onasi ertaga ko‘z duxtiriga murojaat qilishi tayin. Davolangani bilan bola bir umr ko‘rish qobiliyatining pastligidan qiynalishi, vaqtida e’tibor bermagani uchun ota-onasidan norozi bo‘lishi mumkin.

7 YOSHGACHA BOLALARGA TELEFON MUMKIN EMAS

- Keyingi vaqtlarda bolalarda g‘ilaylik va miopiya (uzoqni ko‘rolmaslik) ko‘proq uchrayapti, - deydi Samarqand davlat tibbiyot universitetining oftalmologiya kafedrasi assistenti Feruza Hamidova. – Bu kasalliklar aynan telefon, planshet, kompyuter ekranlariga ko‘p qarashdan kelib chiqyapti. Aslida mobil telefon 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarga mumkin emas. 7 yoshdan bola bir kunda yarim soat, 12-14 yoshli bolalar esa bir soatdan ortiq telefon, planshet, kompyuterdan foydalanmasligi kerak. Katta yoshdagilar har yarim soatda 5-10 daqiqaga kompyuter ekranidan uzoqlashishi talab etiladi.

Zamonaviy gadjetlardan ko‘p foydalanish oqibatida odamlarda quruq ko‘z sindromi kasalligi ham uchrayapti. Masalan, telefonda biror narsani tomosha qilib o‘tirgan odam 1 daqiqa 3-4 marta mijja qoqadi. Aslida me’yor bo‘yicha 1 daqiqada 18 marta mijja qoqishi kerak. Quruq ko‘z sindromida ko‘z yoshlanishi, qum tiqilganday bo‘lishi, yot jism hissi, ertalab turganda ko‘z quruq bo‘lishi, ko‘zning toliqishi kabi belgilar kuzatiladi.

Ba’zilar kompyuter uchun maxsus ko‘zoynaklar ko‘zning ko‘rish qobiliyatini asraydi, deb hisoblaydi. Haqiqatda bu noto‘g‘ri fikr. Maxsus ko‘zoynaklar ekrandagi ma’lum nurlarni qaytara oladi, ammo ko‘rish qobiliyatining pasayishini qaytara olmaydi. Yuqorida aytganimdek, katta yoshdagi odamlar ham har yarim soatda ekrandan uzoqlashishi lozim.

Bizga ko‘plab abituriyentlar, maktab o‘quvchilari ko‘rish qobiliyatining pasayotganidan shikoyat qilib kelyapti. Surishtirib ko‘rsak, ular ko‘pincha vazifani telefonda bajaradi. Ayrim o‘qituvchilar o‘qish uchun bolalarga vazifani kitobdan emas, telefonda beradi. Bola uyga vazifani telefonda o‘qiydi, ko‘p vaqtini ekranga tikilib o‘tkazadi. O‘qituvchilardan bolalarga faqat kitobdan vazifa va topshiriqlar berishini iltimos qilgan bo‘lardim.

Ko‘rish qobiliyati pasayib ketgan bolalar shifokor muolajasidan keyin ham yuqoridagi normalarga amal qilmasa, yana ko‘zi avvalgidek xiralashadi. Shuning uchun kasallikni davolashdan oldin uni keltirib chiqaruvchi omillardan chetlashish kerak.

IXTISOSLASHGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIGA TELEFON TAQIQLANGAN, UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA-CHI?

Yaqinda ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘quvchisi bilan gaplashib qoldim. Uning aytishicha, maktab-internatda faqat ertalab yarim soatga ota-onasi bilan gaplashish uchun o‘quvchilarga qo‘l telefonlari beriladi. Kunning qolgan vaqtida o‘quvchilar telefonlarini maktab xodimlariga topshiradi.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda joriy etilgan bunday tartib afsuski, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida qo‘llanilmayapti. Ayrim ota-onalardan farzandi dars tayyorlashi uchun qo‘l telefoni olib berganini eshitib qolyapmiz. Xo‘sh, nega umumta’lim maktablarida uyga vazifalar darslikdan berilmaydi? Shundoq ham telefonga qaram bo‘lib borayotgan yosh avlodni fikrsizlik, ko‘rish qobiliyatining susayishi kabi dardlardan qutqarish vaqti kelmadimi?

Xurshida ERNAZAROVA,
“Zarafshon” muxbiri.

Mulohaza uchun mavzu



MODDIYAT EPIDEMIYASI

Urf-odatlar, qadriyatlar, an’analar, biz e’zozlaydigan tuyg‘ular, insoniylik haqida gap ketganda, negadir ular qishloqda saqlanib qolishi kerak, deb o‘ylaymiz. Ko‘pchiligimiz o‘sha yerlarda haliyam bor, degan xayoldamiz. Aslida qishloq ham bugun boshqa hududlar singari o‘zgarib, yildan-yilga o‘zgacha qadriyatlarni o‘zlashtirib, kezi kelganda, o‘zinikini boy berishi mumkin bo‘lgan hududga aylanmoqda. Ya’ni, nima bo‘lganda ham biz yuz yillardan beri qadrlab kelayotgan qadriyatlar shaharlarda tamoman yo‘qolib, qishloqda asrab qolinadi, degan fikr bugunning manzarasiga to‘g‘ri kelmaydi.
Bunga misollar ko‘p bo‘lsa-da, ba’zilariini alohida yozgim keldi.

TO‘R KIMNIKI?

Qishloqda gap tez tarqaldi: falonchining o‘g‘li ta’lim sohasida yaxshigina ishga o‘tibdi! Birov xursand bo‘ldi, bizning qishlog‘imizdanam shunaqa obro‘li odamlar chiqayapti, deb. Yana kimningdir ensasi qotdi. Kimdir oq yo‘l tiladi, xullas, bu xabarga e’tiborsiz odamning o‘zi yo‘q edi. Qizig‘i keyin bo‘ldi. Mansabga o‘tirgan falonchining otasi bir umr odmigina hayot kechirgani uchun uylari ham el qatori, oddiy qishloq uylaridan biri edi. Ko‘p o‘tmay, uy buzilib, qayta qurildi. Katta, keng darvozaxonadan avval oddiyroq, keyin yanayam qimmatroq, hashamatliroq mashinalar joy egallay boshladi. Shaharga faqat ikki-uch marta, uyam bo‘lsa, davolanish uchun boradigan falonchining onasi umr yo‘ldoshi bilan qishni shaharda o‘tkazadigan bo‘ldi. Kiyimlar, o‘zini tutish o‘zgara boshladi. Qishloqdagilar ham qaysi ma’raka bo‘lmasin, ularni beixtiyor to‘rga o‘tqazadigan bo‘lishdi.

Falonchining onasi endi boshqa ayollarga gap bermaydi. O‘g‘liga qanaqa sovg‘alar kelayotganidan tortib, mashinasini qachon yangisiga almashtirishigacha. Boshqa ayollar ham onaning og‘ziga ko‘zini tikib, shunday o‘g‘il tarbiyalaganiga havas qilib o‘tirishadi. Lekin negadir hech kim ushbu tizimda oylik-maoshning haminqadar bo‘lishiga qaramay, buncha hoy-havasni qisqa fursatlarda amalga oshirayotgan amaldorning pulni qayerdan olayotganini o‘ylab ko‘rmaydi. To‘g‘rirog‘i, o‘ylaydi, hatto biladiyam, lekin bundan nafratlanmaydi. Aksincha, o‘sha oilaga yaqinroq bo‘lishni istaydi, ko‘proq mulozamat ko‘rsatadi. Eng yomoni, farzandlarini ham shunday bo‘lishga undaydi. Ta’lim tizimida kichik bir joyning rahbari shuncha o‘zgarib ketdimi, nega axir, bu bizning bolalarimizning haqi-ku aslida, deya fikr qilmaydi.

Bir paytlar qishloqning oqil keksalari sal bo‘lsa-da, o‘zligini yo‘qotgan qishloqdoshlarini izza qilgan bo‘lsa, bugun ularni ko‘tar-ko‘tar qiladi. Tanbeh bergan odam butun qishloq ichida bir zumda "ichi qoraga", "dushman"ga aylantirib qo‘yiladi.

Quyidagi misolni esa suhbatdoshim o‘zi aytib berdi.

OTAMNING DAKKISI

Otam bizni bir umr halol mehnati, o‘qituvchiligi ortidan katta qildi, tarbiya berdi. Kitob-qalamga mehr uyg‘onishiga otam sababchi bo‘lgan. Viloyatning chekka tumani bo‘lgani uchun uzoqroq maktabga qatnardik. Lekin kitob masalasida muammomiz bo‘lmasdi. Chunki esimni taniganimdan beri uyimizda mo’jazgina kutubxona bo‘lardi. Otam har doim bizga yoshimizga qarab, kitob tanlab berardi, uni maroq bilan o‘qib chiqardik. Ba’zi kitoblarni o‘qishga ruxsat bermasdi. Biz astoydil tirishib, otam aytgan ishlarni bajarganimizda bu kitoblarga qiyinchilik bilan erishardik. Ya’ni, hozirda ota-onalar bolasi kitob o‘qisa, mukofot bersa, biz kitob o‘qish uchun ko‘proq ishlashimizga to‘g‘ri kelardi. Kutubxonamiz uyimizning eng salobatli, hamma ham yaqinlashishga ruxsat bo‘lmagan bir joy edi. Tabiiyki, otamning bunday tarbiyasi bilan hammamiz maktabda yaxshi o‘qidik, oliy ta’lim muassasalarida tahsil oldik.

Yoshlikda olgan bilim, zakovatimiz tufayli bugun viloyatning eng nufuzli boshqarmalarida ishlayapmiz, shukur. Avvallari otam biz bilan faxrlanar, doim qishloqqa borganimizda nasihatlarini aytib, nevaralari bilan kitob haqida suhbatlashardilar. Lekin keyingi yillarda negadir qishloqda vaziyat o‘zgarganini his qilyapman. Odamlar uy qurish, uni bezatish, turli avtomobillar sotib olishga berilib ketdi. Buning nimasi yomon, odamlarning turmush tarzi yaxshilanyapti, dersiz. Albatta, menam avvaliga shunday fikrda edim. Lekin endi atrofga nazar tashlar ekanman, ko‘p qadriyatlarimizni boy berib qo‘ymayapmizmi, deb o‘ylab qolaman.

Keling, fikrimni biroz boshqacharoq tushuntiray. Bundan o‘n yillar avval qishloqqa borsak, qishloq kattalari to‘y-ma’rakalarda nima ish qilayotganim, markazdagi ahvol - ruhiyat, siyosat haqida suhbatlashardi. Yaxshi suhbatlar bo‘lardi, o‘zim ham ulardan ko‘p narsa olardim. Lekin keyingi yillarda bu suhbatlar mavzui tobora torayib bormoqda: faqat boylik, hashamatdan gapirish urfga kirdi. Kimning qanaqa mashina olayotgani, qanaqa uy qurayotgani, qanday to‘y qilayotgani kabi maishiy mavzular obdan gaplashilyapti hozir. Qishloqda tug‘ilib, o‘sib, markazda ishlayotganlar meni yaxshi tushunadi. Bugun qishloqdan chiqib, shaharda ishlayapsanmi, ota-onangni ko‘rishga kelganingda, albatta, tagingda eng so‘nggi rusumdagi avtomobil bo‘lishi kerak. Shundagina obro‘-e’tiborga ega bo‘lasan. Aks holda, hech kimsan, hech nimaga erishmagansan. Bu holatni kuzatib, ko‘nglimdan o‘tganlarini tahlil qilib yurgan paytlarim edi. Bir jiyanim uylanadigan bo‘lib qoldi. Oilam bilan baholi qudrat sovg‘a-salom olib, qishloqqa yo‘l oldik. Mashinam oddiy, el qatori. Avval ota uyiga borib, hol-ahvol so‘rashdik, undan-bundan gaplashdik. Suhbat davomida otamning bir gapi yuragimga nashtardek tegdi. «Sen ham falonchining bolalariga o‘xshab «Treker»larda kelsang bo‘lmaydimi, bolam. O‘shalardan kam joying yo‘qku, axir. Obro‘li joyda ishlasang, nahotki shuncha paytdan beri eski «Neksiya» minib yurasan?!», dedilar. Shu inson meni otammi, deya hayratda qoldim. O‘zlari bir umr bizga halol luqma yedirgan, halollikni bosh mezon qilib tarbiyalagan, bizlarni ham shunday bo‘lishga undagan inson – Otamdan bu so‘zlarni kutmagandim. Otaga qarshi fikr bildirish nojoizligi bizda odob darajasida shakllanib qolgan. Ammo shunday bo‘lsa-da, «Ota, nahotki shu gaplarni siz aytayotgan bo‘lsangiz?!», dedim.

Keyin o‘ylab qoldim, yo‘q, bu so‘zlarni otam emas, yildan yilga qishloqlarga ham kasallik darajasida kirib borayotgan hashamat epidemiyasi gapirayotgan edi. Qanday bo‘lmasin, «Treker», «Malibu» minib, qishloqdoshlarining ko‘ziga qahramon ko‘rinayotgan va ularni beixtiyor qishloqning to‘riga olib chiqayotgan odamlar aytayotgandi bu so‘zlarni. Ming yildan beri odmilik, halollikka sig‘inguday odamlarni ham domiga tortib ketayotgan moddiyat gapirayotgandi bu so‘zlarni...

Gulruh MO‘MINOVA.

Payariqlik o‘qituvchilar “Zakovat” turniri g‘olibi

Respublikamizda o‘qituvchilar o‘rtasida uchinchi bor o‘tkazilgan “Zakovat” turnirida Payariq tumani Oqqo‘rg‘on mahallasidagi 84-maktab pedagoglar jamoasi birinchi o‘rinni egalladi va 100 million so‘m pul mukofotini qo‘lga kiritdi.



- 2012-yildan buyon intellektual o‘yinlarda qatnashaman va “Zakovat” klubi a’zosiman, - deydi jamoa sardori, mazkur maktabning ingliz tili fani o‘qituvchisi Bahodir Anorov. – Bobur Yoqubov, Jobir Ahmedov, Xushnudbek Xudoyberdiyev kabi taniqli bilimdonlar davrasida o‘yinlarda ishtirok etib, tajriba orttirib, mahallamizda ham intellektual klublar tashkil qilganman. Prezidentimiz tashabbusi bilan mahallalar o‘rtasida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida “Zakovat” turnirining tashkil etilishi intellektual o‘yinlarga e’tiborni yanada oshirdi. Jumladan, hududlarda “Zakovat” maktablari, klublari tashkil etildi, musobaqalar ko‘paydi, intellektual turnirlarning nufuzi oshdi.

2022-yilda mahallalar o‘rtasidagi turnirda tumanimizning Sorisuv mahallasi jamoasi bilan respublikada birinchi o‘rinni olib, Prezident e’tiboriga tushdik. O‘sha yili o‘zim dars berayotgan 84-umumta’lim maktabida ham o‘qituvchilardan iborat jamoa tashkil qildim va uch yildan buyon hamkasblarimiz bilan pedagoglar o‘rtasida o‘tkazilayotgan “Zakovat” turnirlarida qatnashyapmiz.

Oxirgi marta qachon maktab o‘qituvchilari jamoasi “Zakovat” turnirida g‘olib bo‘lganini eslolmayman. Raqiblarimiz orasida professor-o‘qituvchilar ham bor edi. Lekin bu yil omad bizning jamoaga kulib boqdi. Jamoamizda ingliz tili, kimyo, boshlang‘ich sinf, matematika, geografiya, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari bor. Kelgusida ular bilan birgalikda kattaroq “Zakovat” klubi tashkil qilish niyatimiz ham yo‘q emas.

F.RO‘ZIBOYEV.

MATBUOT UYI
Zarafshon
Самаркандский вестник

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi
Bosh muharrir: Farmon TOSHEV
Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 421 nusxada chop etildi. Buyurtma 592. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2
Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.
QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.
«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.
Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: T.SIDDIQOV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
Sotuvda narxi kelishilgan holda